



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## 2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
III-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	12
<b>Soliyev Damirjon Nurmatovich</b>	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI) .....	18
<b>Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi</b>	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI .....	26
<b>Xatamov Ochildi Qurbonovich</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ .....	32
<b>PhD. Юлдашева С.Ш</b>	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH .....	38
<b>Haydarova Dinora Atamurot qizi</b>	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ .....	43
<b>Гоженко Борис Владимирович</b>	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH .....	50
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI .....	55
<b>Fazilat Esirgapovna Jomonqulova</b>	
<b>Nizomov Murod</b>	
<b>Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi</b>	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE .....	58
<b>Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev</b>	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH .....	62
<b>R.I.Rashidov</b>	
<b>A.N. Elmurodov</b>	
<b>A.A. Muhiddinov</b>	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS .....	68
<b>Bokhodirov Boriykhon Boburovich</b>	
<b>Bahromjon Urmanov</b>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH .....	74
<b>Ergashova Nilufar Sobirovna</b>	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR .....	80
<b>Azizov Shohsuvor Yuldashevich</b>	
VERTIKAL INTEGRATSİYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI .....	84
<b>Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich</b>	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI.....	90
<b>Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich</b>	
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	94
<b>Pardayeva Ozoda Mamayunusovna</b>	
СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА.....	100
<b>Маърупова Дилсора Абдулла кизи</b>	
O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL SHART-SHAROITLARI.....	105
<b>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</b>	
АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ.....	113
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
<b>Рахматуллаев Алижон</b>	
<b>Сайфитдинов Азизжон</b>	
G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA).....	119
<b>Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ.....	127
<b>Джусупов Кубанычбек</b>	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	133
<b>Umidjon Kostayev</b>	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS.....	140
<b>Saidova Dilfuza Ergashovna</b>	
AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	145
<b>Muydinov Erkin Jamaldinovich</b>	
THE ROLE OF E-COMMERCE IN ECONOMIC DEVELOPMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN'S DIGITAL TRANSFORMATION.....	152
<b>Shakhriddinova Sitora Tolibjon kizi</b>	
THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN.....	157
<b>Yorkin Ziyodullaev</b>	
<b>Munisa Bekmirzaeva</b>	
РОЛЬ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ЗЕЛЕНОМ РОСТЕ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	166
<b>Мохамед Эйд Али Балбаа</b>	
<b>Усманова Азиза Алишеровна</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI.....	173
<b>Shakirxodjaeva Zuxraxon Rustamxanovna</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTLARINI TUZISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	180
<b>Menglikulov Baxtiyor Yusupovich</b>	



THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN .....	184
<b>Yorkin Ziyodullaev</b>	
<b>Munisa Bekmirzaeva</b>	
TASTE OF PLACE: HOW LOCAL-INGREDIENT SOURCING AFFECTS GUEST SATISFACTION AND MENU PROFITABILITY IN HOTEL RESTAURANTS .....	193
<b>Bahodirova Durdona</b>	
<b>Atametova Sevara</b>	
INTERACTIONS IN CREATIVE TOURISM: RESIDENTS' PERSPECTIVES IN UZBEKISTAN.....	198
<b>Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna</b>	
<b>Jasmin Raxmidinova</b>	
XO'JALIK YURITUVCHISUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI .....	204
<b>Bauyetdinov M.J.</b>	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MINTAQA TABIIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) .....	212
<b>Safarov Otabek Abduhamidovich</b>	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY JIHATLARI.....	218
<b>O'rinov Akmaljon Axmadjonovich</b>	
ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	223
<b>Убайдуллаева Мафтунахон Акмалхон кизи</b>	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGI TAHLILI .....	230
<b>Xatamova Manzura Ochildiyevna</b>	
TURISTIK MAHSULOT MARKETINGI: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	240
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
IN VITRO TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KARTOSHKA URUG'CHILIGI ZANJIRI SAMARADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	244
<b>Mardonova Zarifa Numonjonovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURSLAR YETARLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI .....	251
<b>Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA ESG MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA MEXANIZMLARI .....	258
<b>Ajibayeva Raiya Maxsutovna</b>	
YASHIL MOLIYALASHTIRISH INSTRUMENTLARI ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MASALALARI .....	262
<b>Ajibayeva Raiya Maxsutovna</b>	
ANIQ FANLARNI O'QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVLAR: TEORETIK ASOSLAR, KOGNITIV ARXITEKTURA VA AMALIY TRANSFER MUAMMOLARI .....	265
<b>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</b>	
XUFYONA IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNI O'ZBEKISTONDA KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI .....	270
<b>Kalandarov R.A.</b>	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARIDA ALOQA OPERATORLARI ROLINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....	276
<b>Nuraliyev Nurbek Rustam o'g'li</b>	
DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI .....	281
<b>Mansurova Arofatxon Shavkat qizi</b>	



# DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BILVOSITA SOLIQA TORTISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

**Mansurova Arofatxon Shavkat qizi**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
“Budjet hisobi va g‘aznachilik ishi” kafedrası  
mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: ailxomova@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda bojxona to'lovlari kabi bilvosita soliqlar davlat budjetining muhim daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda bilvosita soliqlarning fiskal barqarorlikni ta'minlash, iste'molni tartibga solish hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdagi roli o'rganilgan. 2014–2024-yillar davomida davlat budjeti daromadlari tarkibi tahlil qilinib, bilvosita soliqlar ulushining barqaror o'sib borayotgani aniqlangan. Shuningdek, aksiz solig'ining iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari, jumladan, zararli mahsulotlar iste'molini cheklash hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqotda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida soliq bazasini kengaytirish, soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirish, raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish hamda idoralararo hamkorlikni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Bilvosita soliqlar, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, davlat budjeti daromadlari, fiskal barqarorlik, soliq ma'muriyatchiligi, iqtisodiy siyosat.

**Abstract.** This study examines the role of indirect taxation in ensuring the stability of state budget revenues. In modern economic conditions, indirect taxes such as value-added tax (VAT), excise taxes, and customs duties serve as one of the main sources of government revenue. The research analyzes the importance of indirect taxes in strengthening fiscal stability, regulating consumption, and supporting economic development. The analysis of state budget revenue indicators for the period 2014–2024 shows that the share of indirect taxes in budget revenues has steadily increased, confirming their significance as a stable financial source. The study also highlights the economic and social functions of excise taxes, including regulating the consumption of harmful goods and supporting fair market competition. In addition, the paper discusses key directions for improving indirect taxation, such as expanding the tax base, strengthening tax administration, digitalizing tax control systems, and enhancing cooperation between tax authorities and other government institutions. The findings indicate that improving the efficiency of indirect taxation contributes to sustainable public finance, economic stability, and the effective implementation of social programs.

**Keywords.** Indirect taxes, excise tax, value-added tax, state budget revenues, fiscal stability, tax administration, economic policy.

**Аннотация.** В данной работе рассматривается роль косвенного налогообложения в обеспечении устойчивости доходов государственного бюджета. В современных экономических условиях косвенные налоги, такие как налог на добавленную стоимость, акцизы и таможенные платежи, являются важными источниками формирования бюджетных доходов. В исследовании анализируется значение косвенных налогов в обеспечении фискальной стабильности, регулировании потребления и поддержке экономического развития. Анализ структуры доходов государственного бюджета за 2014–2024 годы показывает устойчивый рост доли косвенных налогов, что подтверждает их значимость как стабильного источника финансовых ресурсов. Особое внимание уделяется экономическим и социальным функциям акцизных налогов, включая регулирование потребления вредных товаров и поддержку конкурентной рыночной среды. В работе также рассматриваются основные направления совершенствования системы косвенного налогообложения, такие как расширение налоговой базы, развитие налогового администрирования, цифровизация налогового контроля и усиление межведомственного сотрудничества.

**Ключевые слова.** Косвенные налоги, акцизный налог, налог на добавленную стоимость, доходы государственного бюджета, фискальная стабильность, налоговое администрирование, экономическая политика.



## KIRISH

Davlat budjeti daromadlarining barqarorligi milliy iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, mamlakatning moliyaviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Budget tushumlari asosan bevosita va bilvosita soliqlar hisobidan shakllanadi, ularning samarali boshqarilishi esa davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hamda bozor barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, bilvosita soliqlar qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona yig'implari kabi to'lovlar davlat daromadlarining barqaror manbai sifatida e'tiborga molikdir.

Bilvosita soliqlar nafaqat fiskal manba sifatida, balki iste'molni tartibga solish va ijtimoiy zararli mahsulotlar iste'molini cheklash vositasi sifatida ham qo'llaniladi. Ularning samarali undirilishi inflyatsiya sharoitida ham budgetga barqaror tushum keltiradi va ichki iste'mol hajmi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu bois bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, bilvosita soliqlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda, soliq ma'muriyatchiligi, nazorat mexanizmlari va raqamlashtirilgan infratuzilma orqali tushumlarni samarali yig'ish alohida ahamiyat kasb etadi. Aksiz solig'i orqali davlat nafaqat budget tushumlarini oshiradi, balki ichki bozorda raqobat muhitini tartibga solish, sog'lom raqobatni qo'llab-quvvatlash va hududiy fiskal siyosatni muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilvosita soliqqa tortishning samaradorligini oshirish, aksiz stavkalarini indeksatsiya qilish, soliq bazasini kengaytirish va ma'muriy nazoratni takomillashtirish orqali davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash mumkin. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga ishonchni oshirish va mamlakatning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash va bilvosita soliqqa tortish tizimini rivojlantirish masalalari iqtisodiy nazariya hamda amaliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda soliq tushumlarini shakllantirish mexanizmlari, bevosita va bilvosita soliqlar o'rtasidagi farqlar, ularning fiskal barqarorlikka ta'siri hamda iqtisodiy samaradorligi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirishda qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona to'lovlari kabi bilvosita soliqlarning o'rni muhim fiskal manba sifatida baholanadi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda bilvosita soliqlarning budget tushumlariga ta'siri, iste'mol bozori bilan bog'liqligi hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli keng yoritilgan. Jumladan, bilvosita soliqlar narxlar shakllanishi, iste'mol hajmi va soliq yukining taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita sifatida talqin qilinadi. Aksiz solig'i esa fiskal vazifani bajarish bilan birga, ayrim mahsulotlar iste'molini tartibga solish va salbiy tashqi ta'sirga ega tovarlar iste'molini cheklash imkonini beruvchi soliq instrumenti sifatida o'rganilgan.

Soliq siyosati va fiskal barqarorlikka oid ilmiy manbalarda bilvosita soliqlarning nisbatan barqaror tushum manbai ekanligi ta'kidlanadi. Chunki ushbu soliqlar, asosan, iste'mol hajmi bilan bog'liq holda shakllanadi va davlat budjeti daromadlarini muntazam moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bilvosita soliqlarning regressiv xususiyati, ya'ni soliq yukining yakuniy iste'molchi zimmasiga tushishi, ularni qo'llashda ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, elektron nazorat tizimlarini joriy etish, markirovka, elektron hisob-faktura va raqamlashtirilgan axborot almashinuvi mexanizmlaridan foydalanish masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlarda keng muhokama qilinmoqda. Bu yondashuvlar bilvosita soliqlar bo'yicha soliq bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq tushumlarini aniqlashtirish va budget daromadlari barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar sifatida baholanadi.

Mavjud tadqiqotlarda hududiy fiskal siyosat, soliq stavkalarining moslashuvchanligi, aksiz stavkalarini indeksatsiya qilish hamda soliq bazasini kengaytirish masalalari ham muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, hududlar kesimida bilvosita soliqlar tushumining farqlanishi, import hajmi, distribyutorlik tizimi, nazorat mexanizmlari va iste'mol bozori holati bilan bog'liq omillarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini optimallashtirish va modernizatsiya qilish masalalari nafaqat fiskal, balki iqtisodiy va ijtimoiy nuqta nazardan ham muhim ahamiyatga ega ekani qayd etiladi. Biroq O'zbekiston sharoitida bilvosita soliqlarning budget daromadlari tarkibidagi o'zgarishlari, aksiz solig'ining hududiy xususiyatlari, soliq ma'muriyatchiligi va raqamli nazorat mexanizmlarining o'zaro bog'liqligini kompleks tahlil qilish masalalari yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy-amaliy masalalarni yoritishga qaratilgan.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqlarning o'rnini tahlil qilish uchun taqqoslash, tizimli tahlil, dinamik tahlil va iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida 2014–2024-yillarda davlat budjeti daromadlari tarkibida bevosita va bilvosita soliqlar ulushi o'rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi ma'lumotlari hamda xalqaro tashkilotlarning davlat moliyasi va soliq siyosatiga oid hisobotlari tashkil etdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat budjeti daromadlari mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Budget tushumlari asosan bevosita va bilvosita soliqlar hisobidan shakllanadi. Bilvosita soliqqa tortish tizimi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur tizimning samaradorligi budget barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoit yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda ko'plab mamlakatlarda bilvosita soliqlar tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon nafaqat budget daromadlarini ko'paytirish, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, investitsiyalarni kengaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bilvosita soliqqa tortish tizimida ayrim muammolar mavjud bo'lib, ular soliq bazasining torligi, yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi, soliq stavkalarining yuqoriligi hamda ma'muriy nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi bilan izohlanadi.

Bilvosita soliqlar tovar va xizmatlar narxi orqali iste'molchi zimmasiga yuklatiladigan soliqlar bo'lib, davlat daromadlarining barqaror manbalaridan biri hisoblanadi. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va ayrim hollarda bojxona yig'imlari kiradi. Iqtisodiy nazariyada bilvosita soliqlar davlat tomonidan ikki maqsadda qo'llanadi: birinchidan, budget tushumlarini ta'minlash, ikkinchidan esa iste'molni tartibga solish, xususan, ijtimoiy zararli yoki salbiy tashqi ta'sirga ega mahsulotlar iste'molini cheklash.

Davlat budjeti daromadlarining barqarorligi ko'p jihatdan aynan bilvosita soliqlarning samarali undirilishiga bog'liqdir. Chunki ushbu soliqlar inflyatsiya sharoitida ham nisbatan barqaror tushum manbai sifatida namoyon bo'ladi va ichki iste'mol hajmi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shuning uchun bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bilvosita soliqlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda, ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, soliq ma'muriyatchiligining takomillashuvi, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va raqamlashtirilgan infratuzilma tushumlarni samarali yig'ishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

2014–2024-yillarda davlat budjeti daromadlari ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

№	Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1	Bevosita soliqlar	8 093,10	9 450,90	11 254,70	12 954,60	17 184,20	31 784,70	45 206,90	58 930,40	64 447,10	73 103,60	90 833,0
2	Bilvosita soliqlar	16 852,30	19 193,80	21 130,70	26 133,20	41 280,40	46 427,20	46 428,40	56 290,40	71 390,20	83 325,8	88 340,9
3	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	4 311,50	4 816,10	5 306,20	6 867,40	12 663,40	19 680,70	21 257,0	23 036,40	23 912,80	28 079,5	36 362,6
4	Boshqa daromadlar va soliqsiz tushumlar	2 473,70	3 032,40	3 351,80	3 725,80	7 971,0	14 272,80	20 045,80	26 542,20	42 113,70	47 211,8	58 886,3

Amaldagi soliq siyosati sharoitida budget daromadlari barqarorligini ta'minlashda aksiz solig'ining roli tobora ortib bormoqda. U nafaqat fiskal manba, balki ichki bozorda raqobat muhitini tartibga solish, sog'lom raqobatni qo'llab-quvvatlash hamda salbiy tashqi ta'sirga ega mahsulotlar iste'molini cheklash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

1 **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Bilvosita soliqlarning fiskal salohiyatini to'liq namoyon etish uchun aksiz stavkalarini belgilashda makroiqtisodiy sharoit, inflyatsiya darajasi, aholining to'lov qobiliyati va daromadlar taqsimoti kabi omillarni inobatga olish zarur. Shu asosda aksiz stavkalarini yillik indeksatsiya qilish va ijtimoiy ahamiyatli mahsulotlarga nisbatan differensial yondashuv qo'llash orqali soliq tizimining barqarorligi yanada mustahkamlanadi.

Aksiz solig'i bo'yicha ayrim mahsulotlarga yangi stavkalar joriy etilishi amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Hududlar kesimida tahlillar fiskal siyosatda hududiy yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida aksiz tushumlarining nisbatan pastligi import hajmi, distribyutorlik tizimining rivojlanish darajasi hamda nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati bilan izohlanadi. Shu bois hududlarda soliq bazasini kengaytirish uchun markirovka va elektron hisob-faktura tizimlarini chuqurlashtirish muhimdir.


Bilvosita soliqqa tortish, ayniqsa, aksiz solig'i orqali davlat budjeti daromadlarini barqaror ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Aksiz solig'i fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilishi bilan birga, soliq siyosatini takomillashtirish orqali mamlakatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Bilvosita soliqlar tizimini rivojlantirish soliq bazasini kengaytirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, yangi soliq instrumentlarini joriy etish va xalqaro tajribani hisobga olishni talab etadi. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarni inobatga olish zarur.

Davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ushbu jarayon tadbirkorlik subyektlariga ishonchni oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat budjeti daromatlari barqarorligini ta'minlash bo'yicha olib borilgan tahlillar ularning samaradorligini baholash hamda amaliyotga tatbiq etishda muhim omillar mavjudligini ko'rsatadi. Budget barqarorligi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, davlat xizmatlari va infratuzilmani moliyalashtirish uchun asosiy shart hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy ta'minot, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga davlat investitsiyalarini barqaror moliyaviy manbalar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilvosita soliqlarning iqtisodiyot va jamiyatga ta'siri keng qamrovli bo'lib, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini kompleks baholashni talab etadi. Bir tomondan, ushbu soliqlar davlat budjeti daromadlarini oshirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hamda infratuzilmani rivojlantirish uchun barqaror moliyaviy manba yaratadi. Ularni yig'ish mexanizmi nisbatan sodd bo'lib, qisqa muddatda katta hajmdagi mablag'larni safarbar etish imkonini beradi. Shu bilan birga, fiskal samaradorlik soliq stavkalarining oqilona belgilanishi, tizimning shaffofligi va ma'muriy nazoratning kuchliligiga bog'liq.



**2-rasm. Aksiz solig'i stavkalarini 10 foizga indeksatsiya qilish.**

Bilvosita soliqlar davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular bevosita daromatlardan emas, balki tovar va xizmatlar narxi orqali undiriladi. Ushbu soliqlarning muhim iqtisodiy xususiyati shundaki, ular iste'mol hajmi ortishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, soliq yukining daromad darajasiga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki iste'molga mutanosib tarzda taqsimlanishiga olib keladi. Shu jihatdan ular regressiv soliq turi sifatida tasniflanadi.



Bilvosita va bevosita soliqlar o'rtasidagi asosiy farq ularning kim tomonidan to'lanishi hamda soliq yukining kim zimmasiga tushishida namoyon bo'ladi. Bevosita soliqlarda soliq to'lovchi va real soliq yukini ko'taruvchi subyekt bir xil bo'ladi. Bilvosita soliqlarda esa ushbu ikki rol ajraladi: soliqni budjetga to'lovchi xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lsa-da, yakuniy soliq yukini iste'molchi ko'taradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqlar muhim o'rin tutadi. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda bojxona to'lovlari davlat budjeti tushumlarining asosiy manbalaridan biri bo'lib, ularning samarali undirilishi mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, iste'mol hajmi bilan uzviy bog'liq bo'lgan bilvosita soliqlar iqtisodiy sharoit o'zgarishlariga nisbatan barqaror tushum manbai sifatida namoyon bo'ladi.

2014–2024-yillar davomida davlat budjeti daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida bilvosita soliqlar ulushining sezilarli darajada oshib borayotgani kuzatildi. Bu esa ushbu soliqlar fiskal siyosatda tobora muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Aksiz solig'i esa nafaqat budjet daromadlarini shakllantirish, balki ijtimoiy zararli mahsulotlar iste'molini cheklash, ichki bozorni himoya qilish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish kabi iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi.

Bilvosita soliqqa tortish tizimining samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, soliq bazasini kengaytirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, raqamlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish hamda soliq organlari bilan boshqa davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlar kesimida soliq tushumlarini tahlil qilish va hududiy yondashuv asosida fiskal siyosatni takomillashtirish ham davlat budjeti barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bilvosita soliqlar tizimini modernizatsiya qilish va uni zamonaviy iqtisodiy talablar asosida rivojlantirish davlat moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy dasturlarni barqaror moliyalashtirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida bilvosita soliqlarning fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini kompleks tarzda hisobga olish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son Qonuni. – URL: <https://lex.uz/docs/-4674011>
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat budjeti daromadlari ijrosi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. – Toshkent, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. Soliq tushumlari, soliq ma'muriyatchiligi va raqamlashtirish jarayonlariga oid rasmiy ma'lumotlar. – Toshkent, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2024-yil yanvar–dekabr. – Toshkent, 2025.
5. World Bank. World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies. – Washington, DC: World Bank, 2023.
6. International Monetary Fund. Fiscal Monitor: On the Path to Policy Normalization. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2023.
7. OECD. Consumption Tax Trends 2024: VAT/GST and Excise, Core Design Features and Trends. – Paris: OECD Publishing, 2024. – DOI: 10.1787/dcd4dd36-en.
8. United Nations Conference on Trade and Development. World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. – Geneva: United Nations, 2023.
9. Gruber, J. Public Finance and Public Policy. 6th ed. – New York: Worth Publishers, 2019.
10. Rosen, H. S., Gayer, T. Public Finance. 10th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2014.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>